

PAHLAVON MAHMUD IJODIY HAYOT YO‘LINING BUGUNGI KUN UCHUN AHAMIYATI HAMDA UNI DAVLAT MIQYOSIDA TARG‘IB QILISH MASALALARI

Raxmanova Ikboloy Atanazarovna,

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti

Axborot resurs markazi direktor o‘rinbosari

Annotatsiya. Mazkur maqolada buyuk mutafakkir va xalqimiz qahramoni Pahlavon Mahmudning hayot yo‘li va ijodi zamonaviy ijtimoiy-ma‘naviy hamda pedagogik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqotda uning ruboiylarida ilgari surilgan inson kamoloti, o‘zini anglash, kamtarlik, sabr va irodaga asoslangan g‘oyalar chuqur ilmiy asosda yoritiladi. Ushbu g‘oyalar zamonaviy ta‘lim tizimidagi reflektiv yondashuv, shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim va kompetensiyaviy model bilan qiyosiy tahlil qilinadi. Maqolada, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasida Pahlavon Mahmud merosini o‘rganish va targ‘ib qilish borasida amalga oshirilayotgan davlat siyosati, xususan, uning nomidagi davlat stipendiyasining joriy etilishi misolida amaliy natijalar tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari Pahlavon Mahmud merosi zamonaviy ta‘lim tizimi va yoshlar tarbiyasida muhim pedagogik material ekanini ko‘rsatadi hamda uni tizimli ravishda ta‘lim jarayoniga integratsiya qilish zarurligini asoslaydi.

Kalit so‘zlar: Pahlavon Mahmud, ma‘naviy meros, shaxs kamoloti, ruboiy, pedagogik talqin, reflektiv tafakkur, davlat siyosati, ta‘lim tizimi.

Аннотация. В данной статье жизненный путь и творческое наследие великого мыслителя и национального героя Пахлавона Махмуда анализируются с позиций современных социально-духовных и педагогических подходов. В исследовании на научной основе подробно освещаются идеи, выдвинутые в его рубаи, такие как духовное совершенствование личности, самопознание, скромность, терпение и воля. Эти идеи сопоставляются с современными образовательными концепциями, включая рефлексивный подход, личностно-ориентированное обучение и компетентностную модель. В статье также рассматриваются практические результаты государственной политики Республики Узбекистан по изучению и популяризации наследия Пахлавона Махмуда, в частности, на примере введения государственной стипендии его имени. Результаты исследования показывают, что наследие Пахлавона Махмуда является важным педагогическим ресурсом в системе современного образования и воспитании молодежи, а также обосновывают необходимость его системной интеграции в образовательный процесс.

Ключевые слова: Пахлавон Махмуд, духовное наследие, развитие личности, рубаи, педагогическая интерпретация, рефлексивное мышление, государственная политика, система образования.

Abstract. This article analyzes the life path and creative legacy of the great thinker and national hero Pahlavon Mahmud from modern socio-spiritual and pedagogical perspectives. The study provides a scientifically grounded interpretation of the ideas expressed in his rubaiyat, including personal development, self-awareness, humility, patience, and willpower. These ideas are comparatively examined in relation to contemporary educational approaches such as reflective learning, learner-centered education, and the competency-based model. The article also discusses the practical outcomes of the state policy of the Republic of Uzbekistan in studying and promoting the legacy of Pahlavon Mahmud, particularly through the example of the introduction of a state scholarship named after him. The findings demonstrate that Pahlavon Mahmud's legacy serves as an important pedagogical resource in modern education and youth upbringing, and substantiate the need for its systematic integration into the educational process.

Keywords: Pahlavon Mahmud, spiritual heritage, personal development, rubai, pedagogical interpretation, reflective thinking, state policy, education system.

Kirish. Bugungi globallashuv va ma'naviy yangilanish jarayonida milliy qadriyatlarni asrash, tarixiy shaxslar merosini o'rganish va uni yosh avlod ongiga singdirish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda desak, mubolag'a bo'lmaydi. Har bir xalqning ma'naviy taraqqiyoti, avvalo, uning tarixiy xotirasi, buyuk ajdodlari merosi va ular tomonidan yaratilgan axloqiy-falsafiy qarashlar bilan chambarchas bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan, o'zbek xalqining buyuk mutafakkiri, shoir va pahlavoni sifatida tanilgan Pahlavon Mahmud shaxsiyati va ijodi alohida ilmiy e'tiborni talab etadi.

Pahlavon Mahmud nafaqat tarixiy shaxs, balki yuksak mukammallik timsoli sifatida ham qadrlanadi. Uning hayot yo'li jasorat, mardlik, halollik va komillik g'oyalari bilan sug'orilgan bo'lib, ruboiylarida esa insonning o'zini anglash, axloqiy poklanish va ruhiy kamolot masalalari chuqur falsafiy talqin etiladi. Shu bois, uning merosi bugungi kunda nafaqat adabiy yoki tarixiy manba, balki shaxs tarbiyasida muhim pedagogik asos sifatida ham ahamiyat kasb etmoqda [1].

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda milliy-ma'naviy merosni tiklash va ulug'lash borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, buyuk ajdodlar merosini o'rganish, ulardagi muhim g'oyalarni yoshlar ma'naviyatiga singdirish va shu orqali ularning nomini abadiylashtirish davlat siyosatining muhim tarkibiy qismiga aylandi deya ayta olamiz. Jumladan, P.Mahmud shaxsiga bo'lgan e'tibor ham tobora ortib bormoqda. Uning nomi bilan bog'liq ilmiy tadqiqotlar, dissertatsiyalar, madaniy-ma'rifiy tadbirlar va ta'limiy tashabbuslarning kengayib borayotgani ushbu jarayonning amaliy isboti bilan birga ifodasi hamdir [2].

Ayniqsa, yurtimizda Pahlavon Mahmud nomli davlat stipendiyasining joriy etilishi ushbu tarixiy shaxs merosini zamonaviy ta'lim tizimi bilan integratsiya qilish yo'lidagi muhim qadamlardan biri hisoblanadi. Mazkur stipendiya orqali nafaqat iqtidorli yoshlar rag'batlantirilmoqda, balki Pahlavon Mahmudga xos bo'lgan jasorat, matonat va ma'naviy yetuklik kabi sifatlar yosh avlod tarbiyasiga uyg'unlashtirilmoqda [3]. Bu esa tarixiy merosni faqat eslash emas, balki uni amaliy tarbiya vositasiga aylantirish imkonini bermoqda.

Shu bilan birga, zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda Pahlavon Mahmud ijodining falsafiy va pedagogik mohiyatini tizimli ravishda o'rganish zarurati ham mavjud. Chunki uning ruboiylarida ilgari surilgan g'oyalar bugungi kun yoshlarini tarbiyalash, ularning ma'naviy-axloqiy sifatlarini shakllantirish va komil insonni tarbiyalash konsepsiyasi bilan uzviy bog'liqdir [4].

Mazkur maqolaning maqsadi Pahlavon Mahmudning hayot yo'li va ijodini tahlil qilish, uning merosining bugungi kun uchun ahamiyatini ilmiy asoslash hamda davlat tomonidan ushbu merosni mustahkamlash va targ'ib qilish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarni tahlil etishdan iborat.

Metodologiya. Mazkur tadqiqotimiz Pahlavon Mahmudning hayot yo‘li va ijodini zamonaviy pedagogik hamda ijtimoiy nuqtayi nazardan tahlil qilishga qaratilgan bo‘lib, unda kompleks metodologik yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida tarixiy, filologik va pedagogik yondashuvlar uyg‘unligi asosiy metodologik tamoyil sifatida belgilandi.

Avvalo, nazariy tahlil metodi yordamida Pahlavon Mahmud hayoti va ijodiga oid ilmiy manbalar, tarixiy-adabiy asarlar hamda zamonaviy tadqiqotlar o‘rganildi. Ushbu metod orqali uning ruboiylarida aks etgan asosiy g‘oyalar – inson kamoloti, axloqiy poklik, kamtarlik, sabr va irodaga doir qarashlar tizimli ravishda tahlil qilindi [1].

Matnshunoslik (tekstologik) tahlil metodi asosida Pahlavon Mahmud ruboiylarining mazmuniy qatlamlari o‘rganildi. Ruboiylarda ifodalangan falsafiy g‘oyalar, badiiy vositalar va ramziy ifodalar aniqlanib, ularning pedagogik talqini ishlab chiqildi. Ushbu metod orqali ruboiy matni darajasida g‘oya – obraz – ma’no zanjiri ochib berildi [2].

Shuningdek, qiyosiy-pedagogik metod qo‘llanilib, Pahlavon Mahmud ijodida ilgari surilgan axloqiy va ma’naviy qarashlar zamonaviy ta’lim tizimidagi kompetensiyaviy yondashuv, reflektiv tafakkur va shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim tamoyillari bilan solishtirildi. Bu orqali tarixiy merosning bugungi pedagogik jarayon bilan uzviy bog‘liqligi asoslab berildi [3].

Tadqiqotda, shuningdek, tavsifiy-analitik metoddan foydalanilib, O‘zbekiston Respublikasida Pahlavon Mahmud merosini o‘rganish va targ‘ib etish borasida amalga oshirilayotgan davlat siyosati, normativ-huquqiy hujjatlar va amaliy tashabbuslar tahlil qilindi. Xususan, Prezident qarorlari, davlat dasturlari va ta’lim tizimidagi yangiliklar mazkur yo‘nalishda muhim manba sifatida o‘rganildi [4].

Umumlashtirish va tizimlashtirish metodlari asosida tadqiqot davomida olingan natijalar yagona ilmiy konsepsiya doirasida birlashtirildi. Bu metodlar Pahlavon Mahmud merosining ijtimoiy-ma’naviy jarayonlardagi o‘rni va uning pedagogik ahamiyatini yaxlit holda baholash imkonini berdi.

Shuningdek, tadqiqotda qo‘llanilgan metodlar Pahlavon Mahmudning hayot yo‘li va ijodini nafaqat tarixiy-adabiy, balki pedagogik va ijtimoiy kontekstda chuqur tahlil qilish imkonini yaratdi hamda uning merosining bugungi kun uchun ahamiyatini ilmiy asoslashga xizmat qildi.

Natija. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, Pahlavon Mahmud merosi zamonaviy pedagogik tafakkur va ijtimoiy-ma’naviy jarayonlar bilan uzviy bog‘liq holda shakllanayotgan muhim g‘oyaviy manba hisoblanadi. Uning ruboiylarida ilgari surilgan insonning o‘zini anglash, axloqiy poklanish, kamtarlik va irodaviy barqarorlik kabi g‘oyalari zamonaviy pedagogik nazariyalar bilan konseptual uyg‘unlikka ega. Xususan, o‘zini anglash g‘oyasi reflektiv yondashuv asoslari bilan mos kelib, F. Korthagen ta’kidlaganidek, shaxsning o‘z faoliyatini anglash va tahlil qilish qobiliyati uning rivojlanishining muhim omili hisoblanadi [5]. Shu bilan birga, kamtarlik va kibr qarama-

qarshiligi orqali ifodalangan axloqiy model G. Biesta tomonidan ilgari surilgan shaxsning ijtimoiy va axloqiy subyekt sifatida shakllanishi konsepsiyasi bilan uyg'unlashadi [6]. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, Pahlavon Mahmud ijodida aks etgan sabr, matonat va qat'iyat g'oyalari zamonaviy kompetensiyaviy yondashuv doirasida muhim hisoblangan shaxsiy va ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi. L. Darling-Hammond fikriga ko'ra, zamonaviy ta'lim tizimida muvaffaqiyatli shaxsni shakllantirish bilim bilan bir qatorda irodaviy sifatlarni rivojlantirishni ham talab etadi [7]. Shu nuqtai nazardan, Pahlavon Mahmud merosi nafaqat tarixiy-adabiy fenomen, balki zamonaviy pedagogik tizimni boyituvchi konseptual resurs sifatida namoyon bo'ladi. So'ngi tendensiyalar shuni ko'rsatadiki, P.Mahmud merosining zamonaviy ta'lim tizimiga integratsiya qilinishi davlat siyosati darajasida tizimli ravishda amalga oshirilmoqda va bu jarayon tarixiy merosni amaliy tarbiya vositasiga aylantirish imkonini bermoqda. Xususan, Pahlavon Mahmud nomli davlat stipendiyasining joriy etilishi uning shaxsiyati va g'oyalarni yoshlar ongiga singdirishning samarali institutsional mexanizmi sifatida namoyon bo'lmoqda.

Ushbu yondashuv UNESCO tomonidan ilgari surilgan madaniy meros asosida ta'lim berish konsepsiyasi bilan uyg'unlik kasb etib, tarixiy qadriyatlarni zamonaviy ta'lim tizimiga integratsiya qilish orqali shaxsni har tomonlama rivojlantirish imkonini yaratadi [8].

Shu nuqtai nazardan, Pahlavon Mahmud nomli davlat stipendiyasining joriy etilishi milliy-ma'naviy merosni qo'llab-quvvatlash, iqtidorli yoshlarni rag'batlantirish hamda ularni yuksak ma'naviy qadriyatlar asosida tarbiyalashga qaratilgan muhim va samarali davlat tashabbusi sifatida alohida e'tiborga loyiqdir. Mazkur stipendiya orqali tarixiy shaxs merosi zamonaviy ta'lim tizimi bilan uzviy bog'lanib, uning amaliy ahamiyati yanada kuchaymoqda.

Xususan, 2025/2026-o'quv yili uchun bakalavriat bosqichida Urganch davlat universiteti talabasi Quronboyev Zafarbek Shavkat o'g'lining Pahlavon Mahmud nomli davlat stipendiyasi sovrindori sifatida e'tirof etilishi ushbu siyosatning yorqin natijalaridan biri sifatida baholanishi mumkin. Bu holat nafaqat yoshlarning ilmiy va ijtimoiy faolligini rag'batlantirish, balki Pahlavon Mahmud merosining bugungi kunda real ijtimoiy va pedagogik vosita sifatida samarali amal qilayotganini ham yaqqol namoyon etadi. Tadqiqot natijalari shuni ham ko'rsatadiki, Pahlavon Mahmud merosi asosida shakllanayotgan qadriyatlar yoshlarning ma'naviy-axloqiy rivoji, milliy o'zlikni anglash darajasi va ijtimoiy mas'uliyat hissasini oshirishga xizmat qilmoqda, bu esa uning ijodini zamonaviy ta'lim tizimida keng qo'llash zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Muxokama. Tadqiqot natijalarining tahlili shuni ko'rsatadiki, Pahlavon Mahmud merosi shunchaki tarixiy-etnografik qiymatga ega bo'lmay, zamonaviy pedagogik transformatsiyalar uchun fundamental metodologik asos bo'lib xizmat qila oladi. Mutafakkir ijodidagi "o'zini bilish" va ichki komillikka intilish tamoyillari bugungi kunda

G'arb pedagogikasida yuqori baholanayotgan F.Korthagenning reflektiv modeli bilan konseptual jihatdan hamohangdir. Biroq, Korthagen refleksiyaning ko'proq kasbiy ko'nikmalarni shakllantirish vositasi sifatida talqin etsa, Pahlavon Mahmud uni shaxsning ontologik va axloqiy poklanish jarayoni sifatida taqdim etadi. Bu esa ta'lim jarayonida faqatgina "bilim berish" bilan cheklanib qolmay, talabalarda metakognitiv qobiliyatlarni, ya'ni o'z harakatlari va ichki dunyosini tahlil qilish madaniyatini shakllantirishda milliy manbalardan foydalanishning samaradorligini asoslaydi.

Shu bilan birga, ruboiylarda ilgari surilgan kamtarlik va nafs ustidan g'oliblik g'oyalari Gert Biestaning subyektivlashtirish konsepsiyasi kontekstida yangicha ma'no kasb etadi. Biesta ta'limning asosiy maqsadi shaxsni mustaqil va axloqiy qaror qabul qila oladigan subyektga aylantirish ekanligini ta'kidlaydi. Pahlavon Mahmudning "pahlavonlik" kodeksi — jismoniy kuchning ma'naviy yetuklikka bo'ysundirilishi — aynan mana shu subyektivlikning tarixiy va milliy andozasidir. Demak, bugungi kunda ta'lim tizimiga tatbiq etilayotgan kompetensiyaviy yondashuv shunchaki mehnat bozori uchun mutaxassis tayyorlash emas, balki Mahmud falsafasida ko'rsatilgan irodaviy sifatlarni ham o'z ichiga olishi lozim.

Davlat miqyosida Pahlavon Mahmud nomidagi stipendiyaning joriy etilishi, tahlillarimizga ko'ra, madaniy merosni institutsional darajada modernizatsiya qilishning muvaffaqiyatli namunasi hisoblanadi. Bu jarayon YUNESKOning nomoddiy madaniy merosni ta'limga integratsiya qilish strategiyasiga to'liq mos keladi. Biroq, tadqiqot davomida ma'lum bo'ldiki, bu boradagi ishlarni faqatgina moddiy rag'batlantirish bilan cheklab qo'ymaslik kerak. Asosiy muammo — tarixiy merosning pedagogik "transferi", ya'ni ruboiylardagi murakkab falsafiy g'oyalarni zamonaviy darsliklar tiliga o'girish metodikasining yetarli emasligidadir. Kelgusidagi tadqiqotlar aynan Pahlavon Mahmud ruboiylari asosida talabalarning "ma'naviy intellektini" (MI) rivojlantirish bo'yicha aniq metodik modullar ishlab chiqishga yo'naltirilishi maqsadga muvofiqdir.

Xulosa. Pahlavon Mahmud hayot yo'li va ijodiy merosini zamonaviy pedagogik hamda ijtimoiy-falsafiy prizma orqali tadqiq etish shuni ko'rsatadiki, mutafakkir g'oyalari bugungi globallashuv davrida shaxs ma'naviyatini shakllantirishning muhim ichki resursi bo'lib xizmat qiladi. Uning ruboiylarida mujassam bo'lgan insoniy komillik, irodaviy barqarorlik va nafs tarbiyasiga oid qarashlar nafaqat adabiy meros, balki zamonaviy ta'lim tizimidagi reflektiv va kompetensiyaviy yondashuvlarning tarixiy-milliy asosi sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqot jarayonida aniqlanganidek, Pahlavon Mahmud falsafasi va G'arbnig ilg'or pedagogik modellari o'rtasidagi konseptual yaqinlik, milliy qadriyatlarni zamonaviy ta'lim standartlari bilan uyg'unlashtirish uchun ilmiy zamin yaratadi.

Davlat miqyosida Pahlavon Mahmud merosini targ'ib qilishga qaratilgan chora-tadbirlar, xususan, uning nomi bilan bog'liq stipendiyaning joriy etilishi, iqtidorli yoshlarni nafaqat ilmiy faoliyatga, balki yuksak axloqiy mezonlarga yo'naltirishning samarali mexanizmi ekanligini isbotladi. Ushbu amaliyot tarixiy shaxslar xotirasini

abadiylashtirishning ramziy shaklidan, yoshlar ongida milliy o'zlikni anglash va ijtimoiy mas'uliyatni shakllantiruvchi institutsional vositaga o'tganligini ko'rsatadi. Bu esa o'z navbatida, madaniy merosni ta'lim mazmuniga integratsiya qilish bo'yicha xalqaro strategiyalarni mahalliy sharoitda muvaffaqiyatli realizatsiya qilish imkonini bermoqda.

Shunday bo'lsa-da, Pahlavon Mahmud merosidan ta'lim jarayonida foydalanishning metodologik jihatlarini yanada takomillashtirish zarurati saqlanib qolmoqda. Kelgusida mutafakkir ruboiylarining pedagogik interpretatsiyasini o'quv dasturlariga tizimli ravishda kiritish, uning falsafasi asosida talabalarning ma'naviy-axloqiy darajasini baholashning zamonaviy mezonlarini ishlab chiqish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qoladi. Yakuniy xulosa sifatida aytish mumkinki, Pahlavon Mahmud merosini zamonaviy pedagogik tizimga chuqur integratsiya qilish, nafaqat ma'naviy yetuk avlodni tarbiyalashda, balki milliy ilm-fanning xalqaro ilmiy hamjamiyatdagi nufuzini oshirishda ham strategik ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2023). Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlarni tayyorlash hamda ilmiy tadqiqotlar tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida (PQ-414-son qaror). Toshkent.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2020). Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida. Toshkent.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2021). Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va ularning ijtimoiy faolligini oshirishga doir davlat dasturi. Toshkent.
4. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. (2000–2005). Pahlavon Mahmud maqolasi. Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti.
5. Korthagen, F. A. J. (2017). Inconvenient truths about teacher learning: Towards professional development 3.0. *Teachers and Teaching*, 23(4), 387–405.
6. Biesta, G. (2015). *Good education in an age of measurement: Ethics, politics, democracy*. London: Routledge.
7. Darling-Hammond, L. (2017). Teacher education around the world: What can we learn from international practice? *European Journal of Teacher Education*, 40(3), 291–309.
8. UNESCO. (2017). *Education for sustainable development goals: Learning objectives*. Paris: UNESCO Publishing.
9. Karimov, I. A. (2008). *Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch*. Toshkent: Ma'naviyat.
10. Xodjayev, B. (2021). *Pedagogik ta'limda innovatsion yondashuvlar*. Toshkent: Innovatsiya.
11. Mahmudov, N. (2018). *Ta'limda kompetensiyaviy yondashuv va uning metodologik asoslari*. Toshkent: Fan.
12. Abdullaeva, M. (2020). *Pedagog kadrlar tayyorlashda milliy va xalqaro tajribalar uyg'unligi masalalari*. *Pedagogik ta'lim*, 3, 25–31.